



## PROFESSIONAL TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TA'LIM JARAYONIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

**Andijon shahar pedagogika kolleji  
pedagogika fani katta o'qituvchisi  
Ne'matullayeva Matlubaxon Qosimovna**

Zamona har kuni yangilashur, yangi ilm va yangi fikrlik va fununi zamoniyani durbar qilgan odamlarni talab qilur.<sup>1</sup>[1]

**Mahmudxo'ja Behbudi**

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mamlakatimizda zamonaviy ta'lismi tizimida professional ta'limi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda professional ta'limi o'qituvchilarini ta'lismi jarayonidagi faolligini oshirish imkoniyatlariga doir adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlardan foydalangan holda yoritib berildi. Maqolada professional ta'lismi bosqichi asosiy ob'ekt qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lismi, islohot, professional , dual ta'lismi, ta'lismi sifati, o'quv dasturlari, ochiqlik, shaffoflik

### **ABSTRACT**

This article, using legal documents and educational literature and scientific research, highlights the comprehensive reforms carried out within the framework of vocational education in the conditions of Uzbekistan. The main object of the article is the professional stage of education.

**Key words:** education, reform, profession, dual education, education quality, educational programs, openness, transparency, openness.

O'zbekiston deb atalmish diyorning har bir a'zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar

---

<sup>1</sup> Behbudi. Tanlangan asarlar, I jild., Toshkent: "Akademnashr", 2018, -B. 412.



sabab vatanimiz o'zgarishlar diyoridir desak mubolag'a bo'lmaydi. Jonajon O'zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo'yomoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ta'lim va tarbiyada ham ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda.

Bugungi zamонавиј та'лим тизимда professional та'лим тизими о'қитувчиларининг uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzlusiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, texnikasiga, mahoratiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

Mamalakatimizda zamонавиј та'лим sohasi shaxsni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlusiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishga asoslanadi. Shu boisdan o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan asosiy talab, vazifalardan biri talabalarning faolligini oshirishdan iborat.

Shu asnoda talabalarda bilim egallah ehtiyojini shakllantirish zarurati paydo bo'ladi. O'qituvchining vazifasi bir tomondan talabalarda bilim egallah ehtiyojini shakllantirish yo'llarini izlash, topish, o'quv jarayoniga ularni tadbiq etish bo'lsa, ikkinchi tomondan bilim olish ehtiyojini qondirish faoliyatini takomillashtirish va uni muvofiqlashtirib borishdan iboratdir. O'quvchilarning bilim egallah jarayonida faolligini oshirishda asosan mayl, qiziqish va ehtiyojlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning bilim egallahdagi faolligini oshirish imkoniyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil etish kerakki, bu ularning o'qituvchi bilan bir-birlari bilan ko'proq aloqada bo'lishlari uchun imkon yaratsin;

2) mavzu bo'yicha talabalarni qiziqtirgan savollarga javobni dars oxiriga so'ramay, savol tug'ilgan zahoti javob berishni uddalash muhim ahamiyatga ega, hattoki savol mavzuga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan taqdirda ham;



3) o'quvchilarning o'qish va o'rganishda erishgan har qanday yutuqlarini yuqori baholash va rag'batlantirib borish;

4) o'quvchining o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi, bilimini namoyish qilishi uchun javoblariga noto'g'ri izoh bermaslik va sabr-bardosh bilan sharoit yaratib berish;

5) ularning tashabbusini rivojlantirish va mavjud vositalar yordamida rag'batlanirib borish;

6) o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishda talabalarning passiv kuzatuvchi pozitsiyasida qolishlariga yo'l qo'ymaslik, o'qitishning zamonaviy, interaktiv usullaridan samarali foydalanish;

O'quvchilar bilimini baholashda adolatlilik tamoyiliga qat'iy rioya qilish. Toki o'quvchilar mehnati va qobiliyatiga, bilim zakovatiga yarasha taqdirlanmas ekanlar, ular faol bilim egallahga harakat qilmay qo'yadilar.

Ta'lif mazmunini o'quvchilar aqliy qobiliyati darajasida qabul qiladigan hajm va murakkablikda yetkazish; o'qituvchi pozitsiyasi: og'ir bosiqlik, qattiqko'llik, talabchanlik, quvnoqlik, kasbiy bilimdonlik, pedagogik qobiliyatlilik talab qilinadi.

O'qituvchi mehnatining murakkabligi har bir talaba ko'ngliga yul topishda, har bir shaxsdagi imkoniyatlarning rivojlanishiga sharoit yarata bilishidadir.

O'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini oshirish uchun mavjud muammolar o'rganilib, ixtisoslik bo'yicha guruhlarga bo'linib, alohida mavzular bo'yicha yechim topish taklifi bilan talabalar e'tiboriga havola etilishi, muammoning qandaydir e'tiborga sazovor yechimini topgan talabalarni rag'batlantirish usullari ishlab chiqilishi lozim. Bu usul ham o'quvchilarning o'qib o'rganishga bo'lgan qiziqishi va faolligini orttirishga yordamlashadi.

O'qituvchi eng so'nggi ilmiy g'oyalarni, fan yutuqlarini bilishi shart. Agarda har gal yangi axborot manbai o'quvchilarning o'zi bo'lib, o'qituvchi hodisalar ketidan sudralib qolsa, tez orada uning na pedagogik, na tarbiyaviy nufuzidan asar qoladi. O'qituvchining keng dunyoqarashi, har qanday savolga qoniqarli javob topa bilishi,



yangiliklarni sharhlay olishi, o'quvchilarda unga va o'rgatayotgan fanga nisbatan hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi. O'qitiuvchining o'quv jarayonida talabalar diqqatini jalb etish, umumiyligi topish, turli masalalarni hamma talabalar orasida muhokama qilish, axloqiy fazilatlar va muomala madaniyati masalalariga to'g'ri yondashish ham talabalarning bilim olishdagi faolliklarini oshirishga yordam beradi.

O'quvchilarning bilim egallashdagi faolliklarini oshirish uchun o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha keng ko'lamli bilimlarga ega bo'lishi, darslarni qiziqarli misollar, ibratli hikoyalar, hayotiy tajribada ko'rilgan voqealar va xulosalar asosida o'tkazishi, dars paytida o'quvchilarning qiziqishlarini e'tiborga olishi, bag'rikenglik bilan har qanday savollarga javob topishga harakat qilishi lozim bo'ladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish, darslarni zamonaviy texnik vositalar, tarqatmali materiallardan keng foydalanish talabalarni o'quv-bilish faoliyatini yanada yaxshilaydi. Har bir fanning o'ziga xos tomonlari, talabalarni o'ziga jalb etadigan hususiyatlari bor, albatta. Ayniqsa, ixtisoslik fanlarida bunday jihatlar ko'p, nazarimizda. Ixtisoslik fanlari bo'yicha talabalarning bilim olish faolligini oshirish uchun o'rganilayotgan fanning insoniyat hayoti va taraqqiyotidagi roli, mamlakat iqtisodiyoti va salohiyatidagi o'rni juda mukammal yoritib berilishi kerak. Shundagina talaba mazkur fanni chuqurroq o'rganishga harakat qiladi.

Shu o'rinda Yurtboshimiz 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va xalqimizga qilgan Murojaatida "Ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu -yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotgani hammamizni o'ylantirishi kerak. Shu bois, 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarur.

Shu maqsadda 2023 yildan boshlab yangi dastur amalga oshiriladi. Har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinadi"[2] -deya ta'kidlab, kasb-hunar ta'limiga ham jiddiy e'tibor qaratilishiga urg'u berib o'tdilar.



Xulosa o'rnida mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizdan ko'prog'ini yoshlar tashkil etayotganini hisobga olsak, professional ta'limga alohida e'tibor qilinishi zarurligi oydinlashadi. Zero, tobora sanoat industriyasi rivojlanib borayotgan mamlakatimizda zamonaviy kasblarni puxta egallagan yosh kadrlarga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Prezidentimizning 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlashida o'ziga xoz ma'no mujassam.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020 yil, 23 sentyabr
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil, 20 dekabr.
3. Behbudiy. Tanlangan asarlar, I jild., Toshkent: "Akademnashr", 2018, -B. 412.
4. Behbudiy. Tanlangan asarlar, II jild. Toshkent: "Akademnashr", 2018, -B. 55.
5. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). International Journal on Orange Technologies, 3(3), 128-131.
6. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
7. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) жамиятнинг шаклланиши ва таомиллашувида бошкарув ва тарбия